

**FALASTIN OZODLIK TASHKILOTI VA UNING FAOLIYATI****Pardayev Bekzod Shokirovich**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq mamlakatlari tarixi yo’nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Falastin ozodlik tashkilotining tashkil topishi, uning kurash jarayonlari, tashkilotning Falastin tarixidagi tutgan o‘rni, Isroil bilan olib borilgan o‘zaro munosabatlar, Iordaniya va Falastin aloqalarining keskinlashuvi haqida tarixiy tahlillarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada 1993-yilgi Oslo kelishuvi haqida ma’lumotlar batafsil keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Falastin ozodlik tashkiloti (FOT), Falastin ozod qilish harakati(FATX), Yosir Arofat, Xamas, Falastin Milliy Kengashi(FMK), Oslo kelishuvi, “Rojers plani”, Mahmud Abbos.

Abstract: This article contains a historical analysis of the establishment of the Palestine Liberation Organization, its struggle processes, the role of the organization in the history of Palestine, relations with Israel, and the escalation of relations between Jordan and Palestine. The article also provides detailed information about the 1993 Oslo Agreement.

Key words: Palestine Liberation Organization (PLO), Palestine Liberation Movement (FATX), Yasser Arafat, Hamas, Palestinian National Council (PNC), Oslo Accords, "Rogers Plan", Mahmoud Abbas.

Falastin milliy harakati tarixi arab davlatlarining ingliz mustamlakachiligi va sionizmga qarshi turishidan boshlangan. 1948-yilgi birinchi Arab-Isroil urushidagi mag‘lubiyatidan so‘ng, Falastin muammosini hal qilish arab rejimlarining vazifasiga aylandi. 50-yillarning oxiri 60-yillar boshida Falastin arablarining milliy ozodlik harakatining yuksalib borishi jarayonida 1958-yilda “Falastinni ozod qilish harakati”



tashkil topdi. Qisqacha “FATH” deb atalgan bu tashkilot, vaqt o'tishi bilan Falastinni ozodligi uchun doimo kurashib kelgan asosiy kuchga aylandi. Bu harakatning boshida Yosir Arofat, Saloh Xalaf, Xalil al-Vazir va boshqalar turardi.

Isroilning Arab davlatlariga qarshi tajovuzkorlik harakatining kuchayib borishi hamda arab-isroil mojarosida Falastin omilining kuchayib borishi Arab davlatlari Ligasining Falastin muammosiga ko'proq e'tibor berishni taqozo etdi.

1964-yil yanvar oyida Qohirada Arab davlatlari boshliqlarining kengashi bo'ldi. Kengashda o'sha vaqtdagi Misr prezidenti J.A.Nosirning taklifiga ko'ra Falastin arab xalqiga Falastinni ozod qilish tashkilotini tuzish to'g'risida qaror ham qabul qilishadi. 1964-yil 28-mayda Ierusalimning Iordaniya sektorida Falastin Milliy kongressi chaqiriladi. Unda Falastin Milliy Kengashi birinchi sessiyani chaqirishga kelishildi. Sessiya ishida Suriya, Livan, Iordaniya, Iroq va boshqa Arab davlatlaridan Falastin tashkilotlar tomonidan saylangan 422 delegat qatnashdi.

Falastin Milliy Kengashi (FMK) sessiyasida Falastin ozodlik tashkiloti (FOT)ni tuzdi va Falastin Milliy Xartiyasini qabul qildi. Bu Xartiya Falastin ozodlik tashkilotining asosiy dasturi edi.

Xartiyada e'lon qilinishicha: “Falastin – bu arablarning vatanidir”. Falastinlik arab xalqi o'z vatani uchun qonuniy huquqqa ega va ular arab millatining ajralmas qismi hisoblanadi. Xartiyaning 15 punktida “Asosiy maqsad Falastin yerida sionist davlatini yo'q qilishdan iborat” deyilgan edi. Shu tariqa Falastin ozodlik tashkiloti 1964 yil 28-mayda tuzildi. Quddus shahrida va arab mamlakatlarida quvg'inda bo'lgan barcha Falastin arablarining vakolatlarini ifoda etgan tashkilot. Oliy organi – Falastin Milliy Kengashi ijroiya qo'mitasi. Tashkilot rahbarligiga Ahmad Shukeyri saylangan. FOT ijroiya qo'mitasining keyingi raislari Yosir Arofat (1969-2004), Mahmud Abbos (2004 yildan). FOT ning asosiy maqsadi “demokratik va dunyoviy Falastin davlati”ni tuzishdir. [1, 32]

Shu tariqa Falastin ozodlik tashkiloti ijroiya komiteti tarkibiga dastlab 15 kishi kirdi. Komitetga Ahmad al-Shukeyri rahbarlik qildi. Ahmad Shukeyrining ilgari surgan shiorlari ochiqdan-ochiq shovinistik, demagogik, ekstremistik xarakterga ega edi. Uning bu shiorlari Falastin ozodlik harakatiga katta zarar yetkazdi. Shukeyri hech kim bilan kelisha



olmas edi. Uning avtokratik asosida rahbarlik qilishi FOT rahbariyatida o'zaro kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Boz ustiga Isroil rahbariyati ham falastinliklar yahudiylar bilan hech qachon tinch yashashni istamaydilar degan fikrga keldi. 1967- yil Shukeyri lavozimidan ketdi. Uning o'rnini qisqa muddatga vaqtincha Yahyo Hammud egalladi. 1969 yil boshida FMK ning 5-sessiyasida rais etib Yosir Arofat saylandi. Ijroiya komitet tarkibiga endi Falastin ozodlik armiyasi vakillari ham kirdi. Shu o'rinda Yosir Arofat shaxsiyatiga to'xtalib o'tsam: U 1929-yil Ierusalimda tug'ilgan. 1953- yilda Qohira universitetining muhandislik fakultetini tugatdi. 1956-yilda Misrga qarshi boshlangan agressiya vaqtida Falastin harbiy qismida urushda qatnashga. 1958 yilda o'zining safdoshlari bilan birga Quwaytda "FATH" tashkilotini tuzdi va unga rahbarlik qila boshladi. 1969-yilidan esa Falastin ozodlik tashkilotiga rahbarlik qilishni boshladi.

FOT ning tarkibi juda murakkab. Uning tarkibiga kirgan guruhlar qoida bo'yicha tashkiliy, siyosiy va moliyaviy va harbiy jihatdan mustaqil hisoblanadi. FATH FOT ning eng yirik tashkiloti hisoblanadi. FATH o'zining Markaziy Komitetiga va Inqilobiy Kengashiga ega. Inqilobiy Kengashning 30 dan ortiq a'zolari bor.

FOT ning tarkibiga FATH dan tashqari quyidagi tashkilotlar kiradi: Falastin ozodligi xalq fronti(1967), Falastin ozodligi demokratik fronti (1975), "As-Saika"(1968), Falastin xalq kurashi fronti(1967-1968), Falastin ozodlik fronti, Falastin Milliy Fronti(1973). Bu tashkilotlar o'rtasida Falastin muammosini hal etish, Isroil okkupatsiyasiga qarshi kurash, boshqa qator masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar, qarama qarshiliklar mavjud. Ayniqsa, ular o'rtasida Isroilga qarshi kurashning strategiyasi va taktikasi masalalarida ziddiyatlar talaygina.[2, 7]

70-yillarga kelin FOT va Iordaniya o'rtasida munosabatlar buzildi. Bunga Isroilning Iordaniya hududida joylashgan Falastin lageriga qarshi qurolli hujumi sabab bo'ldi. Isroilning hujumdan maqsadi Iordaniya rahbariyatini Falastinliklarga qarshi qo'yish edi. Oxir oqibat ikki o'rtada urush vujudga keldi va o'zaro terrorlarga aylanib ketdi. FOT Isroil taklif etgan Rojers planini ham qabul qilmadi(Rojers rejasida "yer evaziga sulh" g'oyasi ilgari surilgan). Bu g'oyani qo'llab turgan Misr prezidenti Jamol Abdul Nosirni ham bir qadar FOT dan hafsalasi pir bo'ldi. Falastin xalqi ham o'zaro urushlardan charchagan edi.



Uzoq yillar kelishuv imzolashdan o'zini olib qochgan Isroil 90 – yillarga kelib, o'zi ham bunga xayrixohlik qila boshladi. Lekin bu paytda Falastinda “Xamas”, “Musulmon birodarlari” kabi diniy tashkilotlar vujudga keldi. FOT bu dunyoviy tashkilot. Bu diniy tashkilotlarning faollashuvi FOTni ko'chishga majbur qildi.[1, 35]

FOTning asosiy maskani Livanda joylashgan edi, ammo bu yerga Isroilni hujumi natijasida tashkilot Tunis shahriga ko'chirildi. Keyinchalik Ramallohdan qo'nim topdi. 80-yillar oxiri 90- yillar boshida FOT bir qadar zaiflashdi. Chunki endi unga qarshi boshqa diniy tashkilotlar ochiqchasiga yo'qotish choralari ko'ra boshladilar. FOT ning albatta qilgan eng yirik ishlaridan biri bu Isroil bilan Oslo kelishuviga erishganidir. Endi shu haqida batafsil ma'lumot beraman.

1993 yilning 13-sentabrida Oq uy oldida Isroil bosh vaziri Is'hoq Rabin va Falastin ozodlik tashkiloti yetakchisi Yosir Arofat tarixga «Oslo kelishuvi» (yoki Norvegiya kelishuvlari) nomi bilan kirgan ikkitomonlama memorandumni qo'l siqib tasdiqlashgan edi. Memorandum muzokaralarni imzolashda ishtirok etgan Norvegiya nomi bilan atalgan. Vashingtondagi marosim shunchaki ramziy ma'noga ega edi, Oslo esa tarixga kirdi.[3, 55] Asosiy hujjat uch hafta muqaddam Norvegiya poytaxtida Isroil tashqi ishlar vaziri Shimon Peres va Falastinning o'sha vaqtdagi nufuzli siyosatchisi, keyinroq Falastin milliy ma'muriyati rahbari bo'lgan Mahmud Abbos tomonidan imzolangandi.

«Oslo» bitimlari aslida ikki hujjatni birlashtiradi: «Oslo-I» (Isroil tomonidan Shimon Peres va Ishoq Rabin, Falastin tomonidan Mahmud Abbos va Yosir Arofat tomonidan imzolangan 1993-yilgi prinsiplar) va «Oslo-II» (Iordan daryosining g'arbiy sohili va G'azo sektori bo'yicha 1995-yilda imzolangan vaqtinchalik bitim).

Ko'pincha «Oslo» bitimlari haqida gapirilganda «Oslo-I» tushuniladi. Arab-isroil masalalarini hal qilishda eng katta umid aynan mana shu hujjatdan edi.

Deklaratsiyaning ko'plab punktlari orasidan quyidagilarni asosiy qilib ajratib ko'rsatish mumkin:

1-Falastin tomoni Isroil davlati mavjud bo'lishga haqli ekanini tan oladi, terrorizm va boshqa turdagi zo'ravonliklardan voz kechadi, kelgusida mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intiladi.



2-Isroil FOT (Falastin ozodlik tashkiloti)ni sulh muzokaralarida Falastin xalqi manfaatining qonuniy vakili deb tan oladi va Iordan daryosining g'arbiy sohili va G'azo sektorini boshqarish uchun rasmiy Falastin hukumati tuzilishiga rozi bo'ladi. Dastlab ikki hukumat ham kelishuvga amal qildilar: Falastin milliy ma'muriyati tuzildi va ishga kirishdi. Isroil qo'shinlari Falastin muxtoriyatining oltita katta shahri va 450 ta aholi punktlaridan olib chiqib ketila boshlandi.

Iordan daryosining g'arbiy sohilini uchta sektorga bo'lish, ulardan biri to'liq falastinliklar hokimiyatiga o'tishi, ikkinchisida birgalikdagi nazorat va uchinchi — eng kichigi hozircha Isroil ixtiyorida qolishi belgilanadi. Ikkitomonlama ishchi guruhlar xarita chizish bilan band bo'lib turgan paytda har ikki tomondan bitimga qarshi bo'lganlar ko'chalarda o'z pozitsiyalarini toshbo'ron va yonuvchi aralashmalar bilan himoya qila boshlashdi.

«Bizdan talab etilgan narsani qildik. O'zaro tan olinish, xavfsizlikni muvofiqlashtirish. Biz o'z majburiyatlarimizni bajardik, okkupantlar tomoni esa buni amalga oshirgani yo'q», — degan Falastin rahbariyati vakili va FOT a'zosi Yosir Obid Rabbo. 1996 yil 4-noyabrda Tel-Aviv markazida uzilgan o'q ovozi Oslo bitimlarini butunlay ko'mdi-qo'ydi.[3, 115]

Shu tariqa urush olovi yana alanglanib ketdi. Yosir Arofat vafotidan keyin Mahmud Abbas FOT ni boshqara boshladi. Uning davrida FOT aytarli natijaga erisha olmadi. Balki, 2007-yilda G'azo sektori Isroil bilan har qanday tinchlik rejasini rad etuvchi HAMAS nazoratiga o'tgach chuqurlasha boshladi.

1993- yilda HAMAS siyosiy o'yinchi emas, shunchaki harbiylashgan guruh edi. Boz ustiga, Yosir Arofatning nufuzi hamaschilarga faqat ma'lum bir chegaragacha o'z fikriga ega bo'lishga izn berardi.

Endi esa ular Falastin ma'muriyatining ikki asosiy siyosiy kuchidan biri va muxtoriyat raisi Mahmud Abbas ular bilan hisoblashishga majbur, hattoki ertaga Isroilda yangi Is'hoq Rabin paydo bo'lgan taqdirda ham.[4, 85]



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Nishonov. Yaqin Sharq: muammo va mojaroning tinch hal etish jarayonlari (1948-2004). T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004. B 32, 35.
2. Mishal S, Sela A. The Palestinian Hamas: Vision, Violence, and Coexistence. New York: Columbia University Press. – 2000 p 7.
3. К.С. Азимов. Яқин Шарқ: ер, сув, эътиқод бўйича зиддиятлар. XX аср – Тошкент, 2022. – б 55, 115.
4. Аливаиви А.М. Организация освобождения Палестины в перспективе провозглашения независимого государства Палестина. В 85.